


TASVIRIY SAN`ATNI O`QITISHDA PSIXOLOGIYANING O`RNI VA UNING TALABALAR KASBIY TAYYORLASHDAGI AHAMIYATI.



Zokirov Diyorbek Shokir o‘g‘li,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

San’atshunoslik fakulteti, “Tasviriy

san’at va dizayn ” kafedrasi 1-kurs magistiranti.

diyorbekzokirov0141@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola tasviriy san`atni o`qitishda psixologiyaning o`rni va uning talabalarni kasbiy tayyorlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Unda tasviriy san`at orqali talabalar ijodiy fikirlash qobilaiyatlarini rivojlantirish, o`z his-tuyg`ularini ifodalashga imkon yaratish va kasbiy mahoratini shakllantirish jarayonida psixologik yondashuvlarning ahamiyati ko`rsatilgan. Shuningdek psixologik tamoyillarning ta`lim jarayoniga integratsiyasi talabalarda o`z-o`zini anglash, ichki muvozanatni tiklash hamda stressni yingishda qanday yordam berishi haqida mulohazalar bildiriladi.

Kalit so`zlar: psixologiya, talaba, stress, tasviriy san`at, his-tuyg`u, ruhiy barqarorlik.

Annotation: This article analyzes the role of psychology in teaching fine arts and its importance in preparing students for professional careers. It emphasizes the singnificance of fostering students` creative thinking abilities, providing opportunities for self-expression through art, and developing professional skills. The importance of psychological approaches in the learning process is highlighted. Furthermore, the article discusses how integrating psychological principles into the educational process helps students understand themselves, restore inner balance, and cope with stress effectively.

Keywords: Psychology, student, stress, fine arts, emotions, mental stability.

Kirish: Tasviriy san`at nafaqat inson estetik didini shakllantiruvchi vosita, balki uning ruhiy holati, shaxsiyati va ijodiy qobiliyatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi

kuchli quroq hisoblanadi. Bugungi kunda tasviriy san'atni o'qitish texnik ko'nikmalarini o'rgatish bilan cheklanib qolmay, balki talabaning ichki dunyosini ochish, uning psixologik jihatlarini hisobga olishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Psixologiya bu borada ta'lism jarayonining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'lib, talabalarning qiziqishlarini, ijodiy potentsialini va shaxsiy rivojlanishini aniqlashga yordam beradi. Ta'lism jarayonida har bir talabaning o'ziga xos psixologik xususiyatlari borligi va bu xususiyatlarni hisobga olgan holda, ta'lism usullarini moslashtirish talabalarni kasbiy rivojlantirishda samarali natijalarni ta'minlaydi. Tasviriy san'at orqali talabalar faqatgina texnik mahoratni oshiribgina qolmasdan ijodiy fikrlashni rivojlantirish, o'z his-tuyg'ularini ifoda qilish va o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, psixologiyaning talabalarning stressni yengishida, hissiy muvozanatni tiklashi va ijodiy o'zini anglashga erishishida ko'rsatayotgan ijobiy ta'siri zamonaviy ta'lism tizimi uchun dolzarb mavzu hisoblanadi. Shu sababli, tasviriy san'atni o'qitishda psixologik yondashuvlarni qo'llashning ahamiyatini chuqurroq tadbiq qilish zarur.

Adabiyotlar tahlili: Tasviriy san'at orqali talabalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitish jarayoni ularda kasbiy malaka va ijodiy qobiliyatlarini shakillantirishda muhim rol o'ynaydi. Har bir talabaning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini aniqlash, ularning ruhiy holatini tushunish o'qituvchidan ijodiy yondashuvni talab qiladi. Psixologik tamoyillarga asoslangan darslar nafaqat talabaning ijodkorligini rivojlantiradi, balki ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi va ijobiy hissiy muhit yaratadi. Bu haqida "Positive Psychology in education: Your Ultimate Guide" maqolasida quyidagicha fikr bildirgan: " maktablarda ijobiy psixologiya yondashuvining qo'llanilishi talabalarning farovonligini, darsga bo'lgan qiziqishini va o'quv yutuqlarini oshiradi. Bu yondashuv talabalarning kuchli jihatlari va muammolarga chidamliligiga e'tibor qaratadi".¹

¹ PositivePsychology.com – "positive psychology in Education: Your Ultimate Guide"

Tasviriy san'at stressni yengish va ruhiy muvozanatni tiklashda samarali vosita hisoblanadi. Psixologiya yordamida talabalar san'at orqali o'z his-tuyg'ularini boshqarishni va stressli vaziyatlardan chiqishni o'rganadilar. Buni ta'kidlab Amerikalik art-terapiya asoschilaridan biri Edith Kramer shunday deydi: "San'at terapiya sifatida insonning ichki his-tuyg'ularini tashqi ifoda etish imkoniyatini yaratadi."² Misol uchun art-terapiya mashg'ulotlari yordamida talabalar o'z muammolarini chuqur anglab, ularga ijodiy yechim topa oladi. Bu esa nafaqat ularning ruhiy salomatligini mustahkamlaydi. balki o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini orttiradi. Tasviriy san'at fanini o'qitishda psixologiyaning ahamiyati bo'yicha ko'plab dunyo olimlari va shu qatorda O'zbekiston olimlari ham bir qancha ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borishgan. Xususan, Lev Semyonovich Vygotskiy, Sergey Leonidovich Rubinshteyn, Howard Gardner, Edith Kramer, Rudolf Arnheim, U.A. Tolipov, X.D. Matyoqubov, Margaret Naumburg kabi tadqiqotchilar shular jumlasidandir. Shu o'rinda Howard Garnerning "Ko'p intilekt nazariyasi" yoki Edith Kramerning san'at terapiyasiga oid ilmiy ishlari shuni ko'rsatadiki, san'at insonning nafaqat ijodiy salohiyatini, balki ruhiy holatini ham yaxshilashga qodir. Mashhur rus olimi L.S. Vyogtskiy o'zining "san'at psixologiyasi" asarida shunday deydi: "San'at orqali inson o'z ichki kechinmalarini tashqi obrazda ifodalaydi va shu orqali psixik bosimdan xalos bo'ladi".³

Mashhur rassomlarning asrlarini tahlil qilish ilimi yashimizni yanada mazmunliroq qiladi, desak mubolag'a bo`lmaydi. Taniqli ijodkor rassomlardan Klod Monne, Salvador Dali, Chingiz Ahmarov, Raxim Axmedov, Ilya Chirun, Bato Dugarzhapov, Edvard Munch, Frida Kahlo kabu serqirra ijodkor rassomlarning yaratgan asarlari insondagi stress, tushkunlik, ruhiy muammolar kabi holatlarni yingishda samarali vosita bo`la oladi.

O'zbekiston xalq rassomi, yirik, konumental, devoriy asarlar muallifi Chingiz axmarovning "Raqqosa" asari nafaqat estetik go'zallikni, balki inson ruhiyatining nafis

² Kramer, Edith. (1971). Art as Therapy wth Children. Schocken Books, New York.

³ Vyogitskiy, L. S. (1925). The psychology of art. Unpublished doctoral thesis. Moscow.

qatlamlarini ham tasvirlaydi. Asarda tasvirlangan qizning raqis harakati, uning chiroyli, yengil harakati va nafis qiyofasi tomoshabinda estetik zavq uyg`otadi. Uning nozik harakatlari, ko`zlarini yummoq orqali ifodalangan ichki sokinlik va ruhiy holat – bu tasviriy san`atning psixologik kuchini yaqqol ko`rsatadi. Ko`k va moviy ranglar palitrasи orqali rassom sokinlik, ruhiy poklik va ichki uyg`unlikni yaratadi. Bu ranglar o`zining psixologik ta`sir kuchi bilaninsonni tinchlantiradi, ichki muvozanatni tiklaydi. Qizning orqaga qaragan pozasida esa ichki dunyoga sho`ng`ish, o`z his-tuyg`ularini raqis orqali ifodalash holati ko`rsatiladi. Uning uzaygan sochlari, milliy libosdagi bezaklar, tanovul holatidagi plastik harakatlar – bular barchasi inson ruhiyatidagi erkinlik, go`zallik va uyg`unlikka intilishni akis ettiradi.



Chingiz Axmarov – Raqqosa

Muhokama: Talabalarning individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olish orqali tasviriy san'at darslarining samaradorligini yanada oshirishimiz mumkin bo'ladi. Ya'ni har bir talabada vizual (ko'rvu), eshituv, kinestetik⁴ yoki aralash o'rGANISH usubi bo'ladi. Psixologik tahlillar orqali esa har bir talabani qanday usulda tezroq o'zlashtirishi mumkinligini aniqlagan holda shu usulda mashg'ulotlarni tashkil

⁴ Kinestetik – bu odamning harakat, teginish va tana hissiyotlari orqali o'rGANISHGA moyil moyil ekanini anglatadi.

etadigan bo'lsak materiallarni tushunish darajasi sezilarli darajada oshadi. Bundan tashqari motivatsiya va qiziqishni uyg'otish orqali ham tasviriy san'at darslarini samaradorligini oshirishimiz mumkin. Ba'zi talabalar o'ziga nisbatan ishonchsiz, yoki ijodiy jihatdan tortinchoq bo'lishlari mumkin. Bunday talabalarning psixologik holatini aniqlagan holda rag'batlantirish, maqtash yoki qiziqarli topshiriqlar orqali ichki motivatsiyasini oshirish mumkin. Bundan tashqari, psixologik yondashuvlar orqali, ayniqsa, art-terapiya, rang psixologiyasi orqali talabalar o'z ijodiy salohiyatini namoyon etishlari mumkin. Yana ba'zilari esa o'z his-tuyg'ularini so'z bilan emas, chizish orqali ifodalashga moyil bo'lishadi. Art-terapiya esa bizga mana shunday imkoniyatni berishi mumkin. Ushbu usul orqali ular o'zlarini yanada erkinroq his qiladi, ruhiy bo'shashish sodir bo'ladi va tasviriy san'atga, ijodga bo'lgan qiziqish oshadi. Ranglar psixologiyasi esa talabalarga o'z ichki holatini anglab, tasvirlar orqali shaxsiy dunyosini aks ettirishga o'rganadilar. Har bir rang odamda ma'lum bir hislarni uyg'otadi. Masalan, moviy – xotirjamlik, qizil - energiya, yashil – uyg'unlik ramzi bo'lishi mumkin.

Tasviriy san'at insonning ichki hissiy dunyosi bilan ishlashda samarali vosita hisoblanadi. Tasviriy san'atning stressni kamaytirish va hissiy muvozanatni tiklashdagi rolining bir nechta asosiy jihatlarini sanab o'tishimiz mumkin.

1. Hissiyotlarni ifodalash imkoniyati.

Tasviriy san'at insonlarga o'z his-tuyg'ularini so'zsiz ifoda etish imkoniyatini beradi. Bu, ayniqsa, o'z muammolarini gapirishda qiynaladiganlar uchun kata yordamdir.

2. Relaksatsiya⁵ va diqqatni jamlash.

Rasm chizish va rang berish jarayonida inson ongini tashqi muammolardan chalg'itadi va diqqatini ijodiy faoliyatga qaratadi. Bu stressni kamaytirishga yordam beradi.

3. Hissiy barqarorlikni tiklash.

⁵ Relaksatsiya-bu tanani va ruhiy holatni tinchlantirish, bo'shashish jarayoni.

Ranglar va shakllar bilan ishlash hissiy barqarorlikni tiklashda foydali. Masalan, yorqin va iliq ranglar kayfiyatni ko'taradi, sovuq ranglar esa tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

4. Ijodiy o'zini anglash.

San'at orqali inson o'z ichki dunyosini kashf etadi, bu esa o'zini anglash va qa'bul qilishni osonlashtiradi.

5. Stressni boshqarish qobiliyatini rivojlantirish.

Tasviriy san'atning terapivtik ta'siri stressga nisbatan chidamlilikni oshiradi va insonning murakkab vaziyatga moslashuvchanligini kuchaytiradi. Bu jihatlar tasviriy san'atning nafaqat ijodiy faoliyat, balki ruhiy sog'liqni saqlash va rivojlantirish vositasi sifatida muhim ekanligini ko'rsatadi. Tasviriy san'atni o'qitishda psixologiyaning roli talabalarni kasbiy tayyorlashda juda kata ahamiyatga ega. Psixologiya san'at ta'limida faqat hissiy barqarorlikni ta'minlash bilan cheklanmay, balki talabalarning ijodiy inteliktual rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Ushbu jarayonni uch asosiy yo'nalishda tahlil qilish mumkin:

1. Talabalarning shaxsiy rivojlanishiga ta'siri.

Tasviriy san'at talabalarni o'z ichki dunyosini anglashga, his-tuyg'ularini ifoda etishga va o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishga yordam beradi. Psixologik yondashuvlar talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ularning o'ziga xos ehtiyojlarini aniqlashda qo'llaniladi. Masalan, introvert⁶ talabalarga hissiy muvozanatni tiklash uchun san'atning terapeutik usullari tavsiya etilishi mumkin. Ekstrovert⁷ talabalar esa jamoaviy ijodiy loyihalar orqali o'z qobiliyatlarini rivojlantirishi mumkin. Bu jarayon shaxsning o'ziga xosligini ochib berishga yordam beradi va talabalarda barqaror psixologik muhit yaratadi.

2. Ijodiy fikrlashni shakllantirishdagi ahamiyati.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirishda psixologiya muhim o'rinn tutadi. O'qituvchilar talabalarni tasviriy san'at orqali fikrlarini erkin ifodalashga, yangi g'oyalarni izlashga

⁶ Introvert odam bu-energiyasini asosan yolg'izlikdan va ichki dunyosidan oladigan odam.

⁷ Ekstrovert odam bu-energiyasini asosan tashqi muhitdan va odamlar bilan muloqotdan oladigan inson.

va nostandard yondashuvlarni qo'llashga o'rgatadi. Psixologiya bu jarayonda talabaning qiziqishlari, qobiliyatları va intilishlarini tahlil qilish orqali ijodiy yondashuvlarni tanlashga yordam beradi. Masalan, ranglar psixologiyasi bo'yicha mashg'ulotlar talabalarning hissiyotlariga ta'sir ko'rsatib, ularning ijodkorligini oshiradi. Bu usul talabalarda tasavvurni kengaytirib, o'z ishi orqali fikrini vizual tarzda ifodalashga imkon beradi.

3. Kasbiy mahoratni rivojlantirishdagi roli.

Tasviriy san'atni o'qitishda psixologik yondashuvlar kasbiy tayyorgarlik jarayonida ham katta ahamiyatga ega. O'qituvchilar psixologik bilimlaridan foydalangan holda, talabalarning motivatsiyasini oshiradi, ularni o'z maqsadlariga erishishga yo'naltiradi. Shuningdek, psixologiya yordamida talabalar o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholashni, muvaffaqiyatsizliklarga bardoshli bo'lishni va ijodiy jarayondan zavq olishni o'rganadilar. Bu ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida mustahkam poydevor yaratadi.

Natijalar: Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakultetida rektor ko'rsatmasi bilan «Art-terapeya» ta'limini yo'lga qo'yish konsepsiysi ishlab chiqilgan. Konsepsiya Tasviriy san'at kafedrasining “Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining amaldagi tatbig'i” ilmiy-tadqiqot mavzusi bo'yicha pedagogika va psixologiya kafedralari bilan hamkorlikda “Art-terapeya” yo'nalishi faoliyatini tashkil etilishini nazarda tutadi.

Quyidagilar ushbu yo'nalishning asosiy vazifalari etib belgilanadi.

- tasviriy va amaliy san'at orqali yoshlarning ruhiy-emotsional holatini ijobiy tomonga o'zgartirish, tushkunlikka tushgan yoki giperharakatli bolalarning ichki muammolariga nisbatan ijobiy yechim topishda ko'maklashish;
- ijodiy faoliyat orqali bolalardagi asabiylikni, ruhiy zo'riqishi kamaytirish, har xil turdagи ichki qo'rquv (fobiylar)ni yo'qotish, kechikkan rivojlanishni bartaraf etish;
- o'ziga ishonch uyg'otish, o'zini qadrlashga, boshqalarga nisbatan salbiy munosabatlarni o'zgartirish va do'stona munosabatga o'rgatish;

- qo'shimcha yo'nalishlarga jalg etish hisobiga ta'lim tizimida bitiruvchilarning kasbiy raqobatbardoshligiga erishish;
- zamonaviy talablar asosida tasviriy san'at ta'limi mazmuniga yangi innovatsiyalarni tatbiq etish, mutaxassislarning professional imkoniyatlarini kengaytirish;
- tasviriy san'atni o'qitish metodikasini takomillashtirish, uning pedagogika va psixologiya fanlari bilan integratsiyasini mustahkamlash; tasviriy va amaliy san'at hamda pedagogika sohasining jozibadorligini oshirish maqsadida qo'shimcha yo'nalishlar orqali talabalarning kasbiy faoliyati ko'lagini kengaytirish.

Tasviriy san'at kafedrasida «Art-terapeya» ta'limining asosiy maqsad va rivojlanish yo'nalishlari

Kafedrada pedagogika va psixologiya kafedralari bilan hamkorlikda tashkil etiladigan «Art-terapeya» ta'limi bolalardagi tez tushkunlikka tushish, asabiylilik, ruhiy zo'riqish, har xil turdagи ichki qo'rquv (fobiylar)ni kamaytirish, o'ziga ishonchva o'zgalar bilan do'stona munosabatni shakllantirish, hayotda o'z o'rnini topishga yordamlashish, ularning ruhiy holatini tiklash va uyg'unlashtirish, uning o'zini tutishning eng yaxshi usullarini topish qobiliyatini shakllantirishni maqsad qiladi.

Tasviriy san'at ta'limida «Art-terapeya» yo'nalishlari:

a) rasm chizish terapeyasi:

- qog'ozda rasm chizish;
- rang (bo'yoq) terapeyasi;
- qum terapeyasi;
- loy (plastilin)da iishlash terapeyasi;
- yog'och o'ymakorligi,
- chekanka,
- tosh terapeyasi,
- origami,

- har xil materiallarda turli narsalar yaratish va boshqalar kiradi.

Art-terapiya mashg‘ulotlari to‘garak shaklida tashkil etiladi va unda “Tasviriy san’at” kafedrasi talabalari mashg‘ulotlarni olib boradi. Kafedradan (ushbu mavzu asosida ilmiy-tadqiqot olib boradigan pedagog) hamda pedagogika va psixologiya kafedralaridan rahbar-maslahatchilar biriktiriladi. Ushbu mashg‘ulotlar “Tasviriy va amaliy san’at hamda dizayn” markazi “Tasviriy san’at” xonasida o‘tkaziladi.


Usullari

Art terapiyaning biror usulini tanlaganda, biriktirilgan o‘qituvchi yoki talaba psixolog bilan maslahatlashilgan holda biron-bir turdag‘i ijod usulini tanlanishi mumkin. Mashg‘ulotlar 1-2 soat davom etadi va haftada bir necha marta o‘tkazilishi mumkin. Tinch, do‘stona muhitda mutaxassislar guruhi ishtirokchilarga o‘z hissiyotlariga e’tibor qaratishga yordam beradi. Ijodiy jarayon tugagach, mutaxassis o‘qituvchi natijalarni psixolog bilan birga muhokama qiladi.


Alohida jurnalda barcha ishtirokchi mutaxassislar (tasviriy san’at, pedagogika, psixologiya) olingan natijalarni qayd etib borishadi.

Санъатшунослик факультетида Арт терапия усулида индивидуал таълим натижалари

ТСМГ 3 босқич талабаси М.даги ижобий ва салбий сифат ўзгариши кўрсатмачлари



харәкети оғир 15 ёшли 4 синф ўқувчиси Х.даги ўзгариш кўрсатмачлари



Jadvalda aks etganidek ChDPU San’atshunoslik fakultetida pedagogika-psixologiya kafedralari bilan hamkorlikda amaliyatga tatbiq etilgan Art-terapiya yondashuvi o‘zining samaradorligini ko‘rsatib kelmoqda.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda tasviriy san'at nafaqat estetik zavq beruvchi, balki kuchli terapivtik vosita sifatida ta'lism jarayoniga integratsiyalarni talab qiladi. Bu yo'nalihsda pedagoglar va psixologlarning hamkorligi, talabalarning ruhiy va jismoniy salomatligini yaxshilash, ularni kelajakdagi kasbiy hayotga tayyorlashda muhim rol o'yнaydi. Shuningdek zamонавиј та'lism tizimida ushbu yondashuvni kengroq tadbiq etish talab etiladi, chunki tasviriy san'atning psixologik jihatlari yosh avlodning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bunday yondashuvning ta'limda keng joriy etilishi nafaqat talabaning ijodiy imkoniyatlarini ochib beradi, balki jamiyatda barkamol shaxslarni shakllantirish uchun muhim poydevor yaratadi. Shu sababli, tasviriy san'at va psixologik yondashuv uyg'unligida olib boriladigan mashg'ulotlar bugungi kundagi ta'lim-tarbiya tizimining ajralmas qismi bo'lib qolishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. K.D. Ushuniskiy-“Odam tarbiyasi sifatida pedagogika” 1861-yil, Rossiya, Moskva, Gosudarstvennoye uchebno-pedagogicheskoye izdatelstvo.
2. G. Gardner-“Frames of mind: The Theory of Multiple Intelligences” 1983-yil, AQSh, Basic Books
3. J. Dewey-“Art as Experience” 1934-yil, AQSh, Minton, Balch & Company
4. L.S. Vygotskiy-“San`at psixologiyasi” 1925-yil, Rossiya, Moskovskiy psixologicheskiy institut.
5. A. Maslov-“Motivation and Personality” 1954-yil, AQSh, Harper & Row Publishers.
6. E. Fromm-“The Art of Being” 1993-yil, AQSh, Continuum Publishing.
7. Zokirov. D, Sultanov. X – “Art-terapiyadan foydalanib talabalardagi ruhiy zo'riqishlarni bartaraf etish imkoniyatlari”. Maqola.
8. Maxsudova Yodgoroy Raxparali qizi – “Klinik art terapiya”. Maqola.
9. X. Sultanov, Q. Y. Abduxamidov, N. Sh. Alimova – Tasviriy san`at kafedrasida pedagogik ta'lim innovatsion klister texnologiyalarining amaldagi tartibi doirasida ‘Art-terapiya” loyihasi dasturi.

10. Sultanov. X.E., Marasulova. E.M., Abduxamidov. Q.Y, A. N Klaster yondashuvidagi «art-terapiya» ta’limi fanlar integratsiyasini amalga oshirish omili. Yangi o‘zbekistonda pedagogik ta’lim innovatsion klasterini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari/may, 606-612.
11. G. Orifjonova-“Artterapiya” o‘quv qo‘llanma “Lesson-press” nashriyoti. Toshkent-2020.
12. Kramer, E. (1971). *Art as therapy with children*. New York, NY: Schocken Books.
13. PostivePsychology.com – “positive psychology in Education: Your Ultimate Guide”
14. Vyogitskiy, L. S. (1925). The psychology of art. Unpublished doctoral thesis. Moscow.

Elektron ta`lim resurslari:

15. www.yandex.uz
16. www.google.uz
17. www.ziyonet.uz
18. www.edu.uz